

## GRAMMATIK TAHLILDA OLAMNING LISONIY MANZARASI

Utegenova O'g'iloy Pardavoyevna

Magistrant,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

### ANNOTATSIYA

O'zbek tilining grammatik tahlilida qardosh bo'lmagan tillar bilan chog'ishtirilishi, o'xshash va noo'xshash jihatlarining ba'zi tomonlarini yoritib berish, o'zbek tilida uchramaydigan birliklar haqida qisqacha ma'lumot

**Kalit so'zlar:** olamning lisoniy manzarasi, fe'l nisbatlari, grammatik tahlil, sifat kategoriyasi, article, parafraza

Har bir tilning o'z tuzilishi, tartibi qoidasi bor. Til va madaniyat bir-birini boyitib boruvchi, o'sha millat vakillarining o'tmishini ko'rsatuvchi ko'zgu ham til sanaladi. Millatlarning dunyoqarashi, fikrlashi, olam va odam haqidagi qarashlari birgina tilda aks etadi. O'zbek tilida fe'l nisbatlari: aniq nisbat, majhul nisbat, orttirma nisbat, birgalik nisbat, o'zlik nisbat ammo ingliz tilida so'zlarning tarkibida tayyor nisbati mavjud so'zlar uchraydi. Masalan, remember-esda tutmoq, remind-eslatmoq, learn-o'rganmoq, teach-o'qitmoq. Men uni o'qitdim o'zbek tilida orttirma nisbatda bo'lsa, ingliz tilida aniq nisbat sifatida qabu qilinadi. I taught him. Ayniqsa, tug'ilmoq fe'lida ikki tilning lisoniy olami aniq gavdalanadi. I was born in the south of London. Men Londonning janubida tug'ildim. –il qo'shimchasi o'zbek tilida o'zlik nisbat qo'shimchasi hisoblanib, ish-harakat shaxsning o'zi tomonidan bajarilganini ifodalasa, ingliz tilida kimdir ta'sirida ya'ni majhul nisbatda beriladi. Ona tomonidan dunyo yuzini ko'rdi mazmuni ingliz tilida ifodalansa, o'zbek millatida esa o'zi dunyoga keldi anglashiladi. Qaysi Grammatik tahlil to'g'ri yoki noto'g'riligini bilish oson emas. Har bir Grammatik qurilish, tahlilda millatning dunyoqarashi, fikrlash tarzi namoyon bo'ladi. Ayniqsa, sifatning ma'no turlarida yaqqol aks etadi. O'zbek tilida xususiyatni anglatuvchi sifat turlari bor. Masalan. Dangasa, ezma, yalqov, sergap, xunuk, beso'naqay, aqlli va hokazo. Ingliz tilida esa faktga asoslangan sifat fact adjective, insonning fikri bilan bog'liq sifat esa opinion adjective deb berilgan. Inglizlarning qarashicha kim uchundir xunuk narsa, kim uchundir chiroyli bo'lishi mumkin. Ona o'z farzandini chiroyli deyishi, hammaning o'z qarashi hisobga olingan ammo faktga asoslangan sifatlarda hech kim inkor qilolmaydigan aniq isbot bo'ladi. Uzun soch, taxtali xontaxta, dumaloq kulcha va hokazo.

Ba'zi o'zbekcha gaplar ikki xil bo'lsa-da, ingliz tilida yoki rus tilida bitta gap holida tarjima qilinadi.

Masalan, menda kitob bor.

Mening kitobim bor. Deyarli har ikkisida mazmun o'xshash Grammatik tuzilishi turlicha. Birinchi gapda modal so'z o'rin-payt kelishigi bilan boglangan bo'lsa, ikkinchi gapda esa moslashuvli so'z birikmasi vositasida hosil bo'lgan. Ammo ingliz tilida va rus tilida birgina tarjima bilan cheklanamiz.

I have a book.

У меня есть книга.

Bir tilni hech vaqt boshqa tildan ustun deb bo'lmaydi faqat tarjima jarayonida o'rganilayotgan tilning nozik tomoni, ma'no qirrasini va eng muhimi uslubi hisobga olinishi zarur. O'zbek tilida ba'zi qat'iy meyorlar mavjudki, kesimning gap oxirida kelishi, kesim yonida kelgan har qanday so'z hol vazifasini bajarishi (qaysi so'z turkumi bo'lishidan qat'iy nazar), otlashgan so'z har qanday gap bo'lari bo'lib kela olishi vokazo.

O'zbek tilida article yoq hatto u so'zni tarjima muqobilini ham uchratmaymiz. Ingliz tilida aniq va noaniq article mavjud, aniq joy nomlari, biror narsani ikkinchi bor takrorlaganda so'zlovchiga ham, tinglovchiga ham ma'lum narsani ifodalaydi. Ba'zi o'rinlarda esa tushum kelishigi vazifasida ham kelishi mumkin.

The united states of America

The british

The Chinese va hokazo.

Tushum kelishigini ifodalaganda quydagicha:

Give me the pen menga ruchkani bering

Give me a pen qanaqa bo'lsa ham menga ruchka bering. Bir a yoki an article ham sonni, ham noaniqlikni ifodalaydi.

There is a table in my room. Xonamda bitta stol bor.

Help me to lift the table. Stolni menga ko'tarib yuborishga yordam bering. Bu gapda article –ni kelishigi vazifasida kelgan. Ingliz tilida kelishik yoq ammo uni vazifasini bajaruvchi predloglar mavjud. O'zbek tilida o'rin –payt kelishigi –da qo'shimchasi yordamida ifodalanadi, sozlar bilan kelganda o'zgarmaydi. Ingliz tilida esa in, at, on –da kelishigini ifodalab, so'zlar bilan kelganda farqlanadi.

We always play football in the morning.

Cameron Dias lives in Britain.

On ustida deb tarjima qilinsa-da, o'zbek tilida usti ot turkumi va –da o'rin-payt kelishigi.

There is an apple on the table.

Tushunish mumkinki, bir predlog ikki xil vazifani bir paytda bajarmoqda. Ham chiqish kelishigi, ham usti ot turkumi vazifasini.

Salim never goes to the shop on weekdays. Bu gapda esa hafta kunlari(da) deb tushunish o‘rinli bo‘lar edi.

At the traffic lights

At weekdays

At sunset

At sunrise

At midnight kabi birikmalar borki, at predlogini o‘rniga on yoki inni qo‘yib bo‘lmaydi.

Tarjima sohasi murakkab jarayon hisoblanib, birgina so‘zning ma‘nosi o‘zgarishi butun boshli gapning mazmuniga putur yetkazishi hech gap emas. Umuman tilni o‘rganayotgan tilshunos yoki tarjimon madaniyatini ham o‘rganishi, tilida aks etgan millatning ruhiyatini his qilishi zarur aks holda faqat Grammatik qoidalar bilan cheklanib, so‘zni bilishi tilshunos uchun yetarli so‘z qo‘llash mahoratini ochib bera olmaydi.

Parafrazalar ham borki, so‘zlarni takrordan, uslub jihatdan qo‘llashga qulay, tinglovchini chuqur mushohadaga yetaklovchi til birligi deyish mumkin.

Birgina til so‘zining bir nechta tasviriy ifodalari mavjud.

Millatning ruhi-til

Aloqa vositasi-til

Jamiyat mahsuli-til

Millatning ko‘zgusi-til

Ushbu parafrazalarda tilning har tomonlama namoyon bo‘luvchi nozik ma‘nolari, qirralari yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Til, Yozuvchi, T., 1998
2. Rasulov R., Umirov I. O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izoohli lug‘ati, O‘qituvchi, T., 1997
3. Umirov I. Parafrazalarning badiiy asarlarda qo‘llanilishiga doir. O‘TA, 5-son, 1996
4. Shamsiddinov H. So‘zlarning funksional sematik sinonimlari. O‘TA, 1-son, 1995
5. Raymond Murphy. English grammar in Use. 2017